

SURXONDARYO VILYOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(2021- yil yanvar – sentabr oylari uchun, dastlabki ma'lumotlar)

Surxondaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra **2726,1** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **45,3** ming kishiga yoki **1,7 %** ga ko'paydi. Jumladan shahar aholisi soni **987,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1738,8** ming kishi (**63,8 %**) ni tashkil etdi.

2021-yil 1- oktabr
holatiga ko'ra
doimiy aholi soni
2726,1 ming kishiga
yetdi.



Tirik tug'ilganlar
soni
60,0 ming kishi



O'lganlar soni
10,0 ming kishi



Shahar joylarda 987,3 ming kishi



Qishloq joylarda 1738,8 ming kishi

Nikohlar soni
17,1 ming birlik




Ajrimlar soni
1,7
ming birlik



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yil 1- oktabr holatiga eng ko‘p aholi soni Denov tumanida 397,3 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo‘rg‘on tumanida 242,3 ming kishini (8,9 %), Jarqo‘rg‘on tumanida 225,5 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 78,2 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o‘sish sur’ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 5,1 ming kishi (1,3 %) va Qumqo‘rg‘on tumanida 3,7 ming kishini (1,5 %), Jarqo‘rg‘on tumanida 3,4 ming kishi (1,5 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 1,7 ming kishini (2,2 %) tashkil etdi.


Tug‘ilish. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 60,0 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 29,7 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,1 promillega oshgan (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 27,6 promille bo‘lgan).

**Surxondaryo viloyati bo‘yicha tug‘ilganlar sonining
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(2021- yil yanvar-sentabr)**

	2020- yil	2021- yil*	O‘sish sur’ati %
Surxondaryo viloyati	54 767	60 031	109,6
Termiz sh.	4139	4166	100,7
tumanlar:			
Oltinsoy	3840	4115	107,2
Angor	2602	2866	110,1
Bandixon	1764	1764	100,0
Boysun	2210	2507	113,4
Muzrabot	2753	3011	109,4
Denov	8184	9201	112,4
Jarqo‘rg‘on	4709	5079	107,9
Qumqo‘rg‘on	4899	5313	108,5
Qiziriq	2440	2660	109,0
Sariosiyo	4173	4505	108,0
Termiz	1408	1702	120,9
Uzun	3440	3778	109,8
Sherobod	3773	4342	115,1
Sho‘rchi	4433	5022	113,3

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

(2021- yil yanvar- sentabr)



■ tug‘ilganlar soni

■ tug‘ilish koeffitsiyenti

Vafot etganlar

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 10,0 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi.

Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha

yanvar- sentabr

Vafot etganlar soni,

ming kishi



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 0,5 mingta 1 yoshgacha go‘daklar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 tirik tug‘ilganga go‘daklar o‘lim koeffitsiyenti 8,2 promilleni tashkil etdi.

Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha 1 yoshgacha vafot etganlar

Vafot etganlar soni,

ming kishi



SURXONDARYO VILOYATI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Tabiiy o'sish. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 50,0 ming kishini (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 46,0 ming kishi) tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha nikoh tuzganlar sonining
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(2021- yil yanvar-sentabr)**



	2020- yil	2021- yil*	O'sish sur'ati %
Surxondaryo viloyati	14883	17147	115,2
Termiz sh.	822	1116	135,8
tumanlar:			
Oltinsoy	901	1056	117,2
Angor	839	864	103,0
Bandixon	477	417	87,4
Boysun	535	660	123,4
Muzrabot	805	861	107,0
Denov	2206	2513	113,9
Jarqo'rg'on	1511	1662	110,0
Qumqo'rg'on	1328	1588	119,6
Qiziriq	642	750	116,8
Sariosiyo	1136	1293	113,8
Termiz	430	617	143,5
Uzun	959	1110	115,7
Sherobod	1166	1214	104,1
Sho'rchi	1126	1426	126,6

Aholi migratsiyasi (kishi)


2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 14,2 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 4,7 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 7,6 ming kishi bo'lgan.

	2020 yil yanvar-sentabr	2021 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	5353	9480
Ko'chib ketganlar	12859	14190
Migratsiya saldosi	-7 506	-4 710

2020- yil
yanvar- sentabr



2021- yil
yanvar- sentabr



Ko'chib ketganlar



Ko'chib kelganlar



Migratsiya saldosi

Hududlar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(2021- yil yanvar-sentabr uchun, kishi)

	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
Surxondaryo viloyati	9480	14190	-4 710
Termiz sh.	4298	2551	1 747
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	18	684	-666
Angor	173	618	-445
Bandixon	542	402	140
Boysun	236	722	-486
Muzrabot	373	762	-389
Denov	668	1386	-718
Jarqo‘rg‘on	261	954	-693
Qumqo‘rg‘on	346	1148	-802
Qiziriq	296	729	-433
Sariosiyo	334	964	-630
Termiz	712	902	-190
Uzun	304	835	-531
Sherobod	451	702	-251
Sho‘rchi	468	831	-363

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi
tel: (76) 225-65-60